TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJIRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	



УДК 336.7

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA'MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH

Nasimov Baxtiyor Vasiyevich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti birinchi prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
ORCID: 0009-0008-4509-3817

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarida logistik jarayonlarni samarali tashkil etish hamda ta'minot zanjirlarini boshqarishni optimallashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xom ashyoni yetkazib berishdan boshlab tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda logistika tizimining o'rnini va ahamiyatini o'rganiladi. Logistik xarajatlarni kamaytirish, vaqt resurslaridan oqilona foydalanish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali klasterlarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: paxta-to'qimachilik klasteri, logistika, ta'minot zanjiri, optimallashtirish, raqamli texnologiyalar.

Abstract. This article examines the optimization of logistics processes and supply chain management in cotton-textile clusters. The study analyzes the role of logistics at all stages, from the supply of raw materials to the delivery of finished products to end consumers. Particular attention is paid to the opportunities for reducing logistics costs, improving management efficiency, and implementing digital technologies as key factors in enhancing the competitiveness of textile clusters.

Keywords: cotton-textile cluster, logistics, supply chain, optimization, digital technologies.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы оптимизации логистических процессов и управления цепями поставок в хлопково-текстильных кластерах. Анализируется роль логистики на всех этапах — от поставки сырья до доставки готовой продукции конечному потребителю. Особое внимание уделяется возможностям снижения логистических затрат, повышению эффективности управления и внедрению цифровых технологий как важным факторам укрепления конкурентоспособности кластеров.

Ключевые слова: хлопково-текстильный кластер, логистика, цепь поставок, оптимизация, цифровые технологии.

KIRISH

Dunyo miqyosida to'qimachilik sanoati millionlab odamlar uchun ish o'rinlarini yaratib, iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutuvchi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanishi ko'plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) sezilarli hissa qo'shib, xalqaro savdoning kengayishiga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda to'qimachilik sanoati bozorining hajmi barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda. Jahon banki prognozlariga ko'ra, mazkur bozor yillik o'rtacha 8,7 % o'sish sur'ati bilan 2024-yildagi 640,43 mlrd AQSh dollaridan 2025-yilda 696,16 mlrd AQSh dollarigacha yetadi [1].

To'qimachilik sanoatining tobora baynalmilallashuvi paxta-to'qimachilik klasterlarida logistik jarayonlarni samarali tashkil etish hamda ta'minot zanjirlarini kompleks boshqarish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Xom ashyoni yetkazib berish, ishlab chiqarish, saqlash va tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazish bosqichlarida yuzaga keladigan transport xarajatlari, yetkazib berish muddatlari, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy tavakkallar zahiralarni boshqarish tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, paxta-to'qimachilik klasterlarida logistik jarayonlarni optimallashtirish hamda zamonaviy ta'minot zanjiri boshqaruv usullarini joriy etish klasterlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish yo'lida keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-sonli¹ "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2020-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.01.2023 yildagi PF-2-son <https://lex.uz/uz/docs/-6351331>



yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli² “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, shuningdek, 2023-yil 26-yanvardagi PF–23-sonli³ “Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning izchil va samarali ijrosi mamlakatimizda sanoat tarmog‘i, xususan, to‘qimachilik tarmog‘i faoliyatini baholash va boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zahiralarni boshqarishning o‘ziga xos jihatlari bo‘yicha ayrim mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlarini ko‘rib chiqamiz. V. P. Kodatskiyning tadqiqotlarida “zahiralarni boshqarish korxonani boshqarishning umumiy tizimida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralishi zarur” degan fikr ilgari suriladi [3]. Mazkur yondashuv zahiralarni boshqaruvining korxona faoliyatidagi strategik ahamiyatini asoslab beradi.

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish strategiyasini o‘rgangan A. Sh. Axmadovning ta’kidlashicha, “korxonada zahiralarni shakllantirish jarayonida maqsadlar to‘qnashuvi yuzaga keladi: moliya xizmati sotuvni yaxshilash maqsadida zahiralarning past darajasini afzal ko‘rsa, ishlab chiqarish bo‘limi esa barqaror yuklama uchun yetarli miqdordagi zahiralarni talab qiladi” [4]. Ushbu manfaatlar muvozanatini ta’minlash, umuman olganda, korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda ortiqcha zahiralarni tufayli aylanma kapitalning samarasiz band bo‘lib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Zahiralarni sotib olish va ularni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlar ko‘pincha ularning o‘z qiymatiga yaqinlashadi. Shu bois, zahiralarni hajmini oqilona darajada ushlab turish ularning aylanuvchanligini tezlashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Mazkur masala ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlagan holda zahiralarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini minimallashtirishga intiluvchi rahbariyat e’tiborida bo‘lishi lozim.

Xom ashyo va materiallarni sotib olish hamda ulardan foydalanishni rejalashtirish moliyaviy, axborot va moddiy oqimlarni oqilona boshqarish va nazorat qilish orqali korxona imkoniyatlaridan maksimal darajada samarali foydalanishga xizmat qiladi.

N. A. Xromixning fikricha, “moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanishni ularni sinchiklab tahlil qilish va optimallashtirmasdan turib ta’minlab bo‘lmaydi. Shu bois, ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi barcha korxonalar tovar-moddiy zahiralarni, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni o‘z ichiga olgan aylanma mablag‘lar holatiga alohida e’tibor qaratishlari zarur” [5]. Ushbu yondashuv resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Zahiralarni turli-tumanligi masalasiga to‘xtalib, N. M. Mo‘minova “turli vaziyatlarda va turli sabablar bilan yuzaga keladigan zahiralarni turlari umumiy muammo bilan birlashadi. Ushbu muammo buyurtma qiymati hamda yetkazib berishlar orasidagi vaqt intervallarini o‘zaro optimallashtirish va zahiralarni boshqarish modellarining iqtisodiy parametrlarini belgilash bilan bog‘liqdir” deya ta’kidlaydi [6]. Bundan kelib chiqadiki, zahiralarni boshqarish modellarining eng muhim parametrlari zahiralarni tashkil etuvchi material va resurslarga bo‘lgan talab intensivligini aniqlashga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda korxonalarda boshqaruvning alohida vazifasi sifatida faqat zahiralarni boshqarishdan biznes-jarayonlarni majmuaviy boshqarishga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu yondashuv resurslardan samarali foydalanish va umumiy boshqaruv tizimining uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O. N. Zueva logistik biznes-jarayonni “tovarlar va ularga yo‘ldosh bo‘luvchi oqimlarni boshqarish orqali firmaning logistik strategiyasi yoki iste’molchilar tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun kompaniya resurslarini transformatsiyalovchi operatsiyalar va funksiyalarning o‘zaro bog‘langan majmui” sifatida tavsiflaydi [7]. Ushbu ta’rif logistik jarayonlarning korxona strategik maqsadlariga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Logistik biznes-jarayonning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste’molchiga tovarlarni o‘z vaqtida va samarali yetkazib berishni ta’minlashdan iborat. Mazkur jarayon ta’minotni rejalashtirishdan boshlanib, xom ashyo va materiallarni sotib olish, ularni korxona omboriga joylashtirish, ichki ishlab chiqarish sexlari o‘rtasida tashish, ishlab chiqarish va ombordagi zahiralarni monitoring qilish, shuningdek, zahiralarning zarur hajmini to‘ldirish bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘z ichiga oladi.

V. I. Malyukning ta’kidlashicha, “xarajatlarni optimallashtirish ishlab chiqarish maydonchalari, ta’minot zanjirlari va logistik infratuzilmani loyihalashtirishda asosiy maqsad hisoblanadi. Amaliyotda bu yondashuv yirik korxonalardagi quvvatlarni bir yoki kam xarajatli bir nechta mamlakatda konsentratsiyalashni anglatadi, bu esa zahira va ortiqcha quvvatlarni samarali boshqarish orqali yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi, ayniqsa, to‘qimachilik sanoati uchun xosdir” [8].

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.01.2023 yildagi PQ-23-son <https://lex.uz/ru/docs/-6373130>

Shu nuqtai nazardan, paxta-to'qimachilik klasterlarida logistik jarayonlarni samarali tashkil etish va ta'minot zanjirlarini boshqarishni optimallashtirish masalalarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi asosiy elementlar va yondashuvlar olimlar qarashlariga tayangan holda maqolaning asosiy qismida batafsil ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Paxta-to'qimachilik klasterlarida logistik jarayonlarni samarali tashkil etish hamda ta'minot zanjirlarini boshqarishni optimallashtirish masalalari bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy baholash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma'lumotlarni guruhlash, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'minot zanjirlarini boshqarish (TZB) o'z faoliyati maqsadlarini yakuniy foydalanuvchi ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilaydigan hamda asosiy biznes-jarayonlarni integratsiyalashga yo'naltirilgan zamonaviy konsepsiya hisoblanadi. Ta'minot zanjirlarini boshqarishning asosiy maqsadi bozor talablari bilan mos ravishda tovarlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonida "ta'minotchilar – maqsadli kompaniya – iste'molchilar" paradigmasini amalga oshirishdan iborat.

Ta'minot zanjirlarini boshqarishga o'tishda biznes-jarayonlarning transformatsiyalashuvi 1-rasmda keltirilgan.


Logistika va TZB funksional menejmentning muhim turlari bo'lib, ular nafaqat korxona ichida, balki uning tashqarisida ham raqobat ustunliklarini shakllantiradi. Ta'minot zanjirida maqsadli firmaning raqobat siyosati amalga oshiriladi, logistik faollik real vaqt rejimida namoyon bo'ladi va TZB ta'minot zanjiridagi hamkorlar bilan munosabatlarni to'g'ri strategik pozitsiyalash sharoitida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Shu sababli, ta'minot zanjirini boshqarish korxona faoliyatida strategik ahamiyat kasb etadi, chunki xom ashyo va materiallarni sotib olishdan tortib, tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha biznes-jarayonlar samaradorligini oshirish imkoniyati vujudga keladi. TZBning ushbu funksiyalari iste'molchilarning tobora murakkablashib borayotgan talablariga tezkor va samarali javob berish qobiliyatini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Shunday qilib, ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish va uning boshqaruvini optimallashtirish zarurati mavjud bo'lib, bu mahsulotni kerakli joyga o'z vaqtida yetkazib berish orqali minimal xarajatlar bilan mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish hamda taqsimlash jarayonlarini bir vaqtning o'zida rejalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqarishni talab etadi.

Bu jihatdan tejamkor dastaklar va ilg'or yondashuvlar zamonaviy sharoitda to'qimachilik va tikuvchilik korxonalarining samaradorligini oshirishga xizmat qilib, ta'minot zanjirida qaror qabul qilish jarayonining rivojlanishiga ko'maklashadi.

To'qimachilik tarmog'idagi biznes-jarayonlarning transformatsiyalashuvi talab va taklif o'rtasida eng maqbul muvozanatni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish quvvatlarining moslashuvchanligini inobatga oladi (1-rasm).




1-rasm. Ta'minot zanjirlarini boshqarishga o'tishda biznes-jarayonlarning transformatsiyalashuvi⁴.

4 Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Operativ rejalashtirish darajasida ichki quvvatlar yetishmasligining o'rnini qoplash uchun mijozlar buyurtmalarini bajarishning qisqa muddatlari, shuningdek, talabning tebranishlari bilan bog'liq ortiqcha ish va subpudrat ishlarini hisobga olamiz.

Ta'minot zanjirida logistik biznes-jarayonlar va ularning transformatsiyalashuvi kompaniyalar samaradorligi va foydaliligini oshirishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Ta'minot zanjirida logistik biznes-jarayonlar transformatsiyalashuvi⁵.

5 Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Muallif tomonidan ta'minot zanjiridagi logistik jarayonlar transformatsiyalashuvi darajasini miqdoriy aniqlash usuli ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. Ta'minot zanjiridagi logistik jarayonlar transformatsiyalashuvining integral ko'rsatkichlari indikatorlari

Ko'rsatkchilar guruhi	Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash formulasi
Logistik resurslardan foydalanish samaradorligi	Xizmat ko'rsatish darajasi	$Ko = Z1 / Zum.$ Z1 – bajarilgan buyurtmalar soni; Zum. – buyurtmalar umumiy soni.
	Omborning to'ldirilishi (to'lganligi)	$Ks = V1 / Vum.$ V1 – saqlash uchun egallangan maydon; Vum. – saqlash uchun umumiy maydon.
	Buyurtmani bajarish tezligi	$Kr = R1 / Rum.$ R1 – o'z vaqtida bajarilgan buyurtmalar soni;
		Rum. – buyurtmalar umumiy soni.
Innovatsiyalardan foydalanish	Jarayonlarni avtomatlashtirish koeffitsiyenti	$Ka = K1 / Rum.$ K1 – avtomatlashtirilgan jarayonlar soni; Rum. – logistik jarayonlarning umumiy soni.
Ta'minot va logistika tizimlarini modernizatsiyalash	Barqaror moliyaviy holatga ega ta'minotchilarni tanlash	$Kh = (C + D) / A$ C- o'z kapitali; D – uzoq muddatli majburiyatlar; A – aktivlar.
	Yetkazib berish marshrutlarini optimallashtirish	$Km = (\sum_{i=1}^n xi * ci) / S$ xi – tashilayotgan yuk miqdori; ci – bir birlik yukni tashish qiymati; S – yetkazib berishni optimallashtirishgacha bo'lgan tashish qiymati.
O'zaro harakatlarni yaxshilash	Mijozlar bazasi o'sishini baholash	$Kt = T0 / T1$ T0 – elektron platforma joriy qilinguniga qadar mijozlar soni; T1 – elektron platforma joriy qilingandan keyingi mijozlar soni.
	Pul oqimlari o'zgarishi	$Kf = F0 / F1 * 100\%$ F0 – elektron platforma joriy qilinguniga qadar pul oqimi; F1 – elektron platforma joriy qilinganidan keyingi pul oqimi.
Samaradorlikni baholash	Bir birlik yukni tashish qiymati	$Kd = S / W$ S – tashishning umumiy qiymati; W – tashilgan yuk hajmi.
	Zahiralar darajasi	$Kq = I / Qsr$ I – inventarizatsiya ma'lumotlari bo'yicha zahiralar miqdori; Qsr – sotishning o'rtacha hajmi.

Taklif etilgan ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda, ta'minot zanjiridagi logistik jarayonlar transformatsiyalashuvining integral ko'rsatkichini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshirilishi taklif etiladi:

$$I = {}^{106}Ko * Ks * Kr * Ka * Kh * Km * Kt * Kf * Kd * Kq \quad (1)$$

Ishlab chiqilgan baholash usuli logistik jarayonlarni optimallashtirish hamda ularning ta'minot zanjirlaridagi transformatsiyalashuvi darajasini tahlil qilishga, shuningdek, mazkur jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun o'sish nuqtalarini aniqlashga imkon beradi.



Paxta-to'qimachilik sanoatida zahiralarni boshqarishda ilgari ko'rib chiqilgan innovatsiyalarni alohida ilg'or texnologiyalarni tanlab joriy etish bilangina cheklab qo'ymasdan, balki mavjud ishlab chiqarish tarmoqlarini keng ko'lamda raqamlashtirish orqali ta'minot zanjirlarining bosqichma-bosqich intellektuallashuvini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Raqamlashtirish nafaqat ta'minot zanjiri ichidagi jarayonlarni tezlashtiradi, balki ularni o'zgarishlarga yanada moslashuvchan va barqaror holga keltiradi. Bu esa hozirgi zamon iqtisodiy sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

2-jadval. Ta'minot zanjiridagi logistik jarayonlar samaradorligi darajasi⁷

Integral ko'rsatkich qiymati (le)	Samaradorlik darajasi	Daraja tavsifi
0,2 dan kam	Past daraja	Avtomatlashtirishning yetarli bo'lmagan darajasi bilan tavsiflanadi: jarayonlar asosan qo'lda boshqariladi, bu esa operatsiyalarni bajarish vaqtining uzayishiga va xatoliklar ehtimolining ortishiga olib keladi. Ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi muvofiqlashtirish darajasi past bo'lib, axborot almashinuvi va harakatlarni uyg'unlashtirish murakkablashadi. Zahiralarni hisobga olishda eskirgan usullar va dasturiy ta'minotdan foydalanilishi jarayonlarni tashqi muhit talablariga tezkor moslashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, mazkur holat raqamlashtirish va modernizatsiya uchun muhim rivojlanish zaxiralarning mavjudligini ko'rsatadi.
0,21 dan 0,5 gacha	O'rta daraja	Zahiralarni boshqarish, buyurtmalarni qayta ishlash va yuk tashishni rejalashtirish kabi ayrim jarayonlarni avtomatlashtirish uchun turli dasturiy yechimlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Logistik
		operatsiyalar samaradorligini baholash va talabni bashorat qilishda tayanch tahliliy dastaklar joriy etiladi. Logistik jarayonlar nisbatan moslashuvchan bo'lib, xodimlar malakasini oshirish dasturlari orqali yangi texnologiyalarga moslashish ta'minlanadi. Jarayonlarni yaxshilash va optimallashtirishga faol intilish mavjud bo'lib, bu keyingi bosqichda innovatsion texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi.
0,51 dan 1,0 gacha	Yuqori daraja	Omborni boshqarish tizimlari, transportni boshqarish yechimlari, katta ma'lumotlar (Big Data) va tahliliy texnologiyalardan keng foydalanish bilan tavsiflanadi. Ta'minot zanjiri shaffofligini ta'minlashda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish, transport marshrutlarini maksimal darajada optimallashtirish hamda yetkazib berishning innovatsion usullaridan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishiladi. Mazkur daraja ta'minot zanjirining raqobatbardoshligini barqaror oshirish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyot ta'minot zanjirlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki ularni boshqarish moddiy tovarlar oqimi bilan uzviy bog'liqdir. Biroq raqamli texnologiyalarga xos bo'lgan modullilik yetakchi korxonalarga o'z biznes-jarayonlarida innovatsiyalarni joriy etishga e'tiborni jamlash imkonini beradi, shu bilan birga ishlab chiqarish faoliyatining ayrim kamroq qo'shilgan qiymatga ega bosqichlarini outsorsingga berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Modulli tizimlarni boshqarishda an'anaviy dastaklardan farq qiluvchi zamonaviy yondashuvlar zarur bo'lib, bunda mahsulot ishlab chiqarishda sifat standartlarini nazorat qilish imkonini beruvchi raqamli dastaklar va axborot tizimlaridan foydalaniladi. Natijada, asosiy raqobat ustunliklari raqamli va innovatsion resurslarni samarali boshqara oladigan hamda ularga ega bo'lgan korxonalar ixtiyorida jamlanadi.

O'zining shaffofligi, moslashuvchanligi, operativligi, yaxlitligi va avtomatlashtirilganligi bilan ajralib turadigan yangi avlod texnologiyalari ishlab chiqarishning, jumladan, to'qimachilik sanoatining yangi paradigmasida keng qo'llanilmoqda.

Real vaqt rejimidagi texnologiyalar yordamida jarayonlarni monitoring qilish, mahsulotni kuzatib borish, "raqamli egizaklar" asosida sifatni bashorat qilish, omborlarda robotlar va "aqlli datchiklar"dan foydalanish kabi ilg'or yechimlarning joriy etilishi to'qimachilik bozorida korxonalarning xavfsizligi va texnologik yetakchiligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar ishlab chiqarish jarayonida to'planayotgan ma'lumotlarni yig'ish, uzatish, birlashtirish va saqlash imkonini beruvchi majmuaviy axborot infratuzilmasini shakllantirishni talab etadi.

⁷ Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

To'qimachilik korxonasida ta'minot zanjirini boshqarish tizimining samarali amal qilishi uning o'zaro bog'langan tizim sifatida shakllanishiga asoslanadi. Mazkur tizim tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi oqimlarini muvofiqlashtirib, bozor konyunkturasi o'zgarishlari sharoitida bozor tizimi ichida moslashuvchan harakatlanishni ta'minlaydi.


Zahiralarni tashishda muhim vazifa sifatida optimal marshrutni tanlash e'tirof etiladi. Ushbu vazifani hal etishda yo'l infratuzilmasi (yo'llar, ko'priklar, transport bog'lamalari) holati, yo'llarning yuklanishi, mavsumiy omillar, yuklash va tushirish uchun oraliq bekatlar zarurati hamda boshqa omillarni hisobga olish zarur bo'ladi.

Logistikada ta'minotning maqsadi majmuaviy tizimni shakllantirishdan iborat bo'lib, u mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va taqsimlash bilan bog'liq barcha jarayonlarni qamrab oladi hamda tovarlarning ta'minotchidan yakuniy iste'molchigacha yetib borishidagi barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Ta'minot tizimini soddalashtirish maqsadida rejalashtirishning yagona markazini tashkil etish yoki paxta-to'qimachilik klasteri korxonalarida xom ashyo va materiallarning markazlashgan ta'minotidan foydalanish mumkin. Mazkur chora-tadbirlar xom ashyo yetkazib berishdagi uzilishlarni kamaytirib, logistik zanjirning javob vaqtini qisqartirish va o'z muddatida bajarilgan buyurtmalar ulushini oshirish imkonini beradi.

Logistik infratuzilmani shakllantirish jarayonida logistik jarayonlar, ta'minot tuzilmalari va zanjirlarini modellashtirish hamda optimallashtirish muammosi tobora ko'proq axborot-kompyuterli modellashtirish, shuningdek, dastlabki ma'lumotlarning to'liqsizligi va bir xil bo'lmasligi sharoitlarida qaror qabul qilish mantig'iga tayangan holda hal etilmoqda.

Ekologik tashvishlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ushbu yondashuvlar yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik jihatlarni hisobga olgan holda logistik jarayonlarni optimallashtirish masalalari 3-rasmda yoritib berilgan.



3-rasm. Ekologik jihatlarni hisobga olgan holda logistik jarayonlarni optimallashtirish⁸

Raqamli servislar va platformalarning samarali ishlashini ta'minlaydigan texnologiyalar hamda tizimlarning integratsiyalashuvi ko'rinishida joriy etiladigan raqamli infratuzilma korxona biznes-jarayonlari holati haqida real vaqt rejimida axborot olish imkonini yaratadi va to'qimachilik ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli infratuzilma uskunalari, voqealar va mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarning agregatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi hisobiga zahiralarning harakati, turli nosozliklar hamda ishlab chiqarish jarayoni haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali to'plash, saqlash va qayta ishlash imkonini beradi.

Paxtani barqaror yetishtirish va qayta ishlashda ekologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Marshrutlarni optimallashtirish uchun dasturiy ta'minot transport vositalarining yuk ko'taruvchanligi va jihozlanganligi, yo'llarning holati monitoringi, yuklash-tushirish ishlari uchun zarur bo'lgan inson resurslari kabi lokal logistik vazifalarni hal etish imkonini beradi.

Logistik operatsiyalarni rejalashtirishda ekologik talablarni inobatga olish, xususan, marshrutlarni avtomatlashtirilgan rejalashtirish orqali uglerod oksidi chiqindilarini kamaytirish, tashish jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

8 Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu tariqa, paxta-to'qimachilik sanoatida zahiralarni boshqarishda innovatsiyalarni faqat alohida texnologiyalarni joriy etish bilan cheklab qo'ymasdan, balki mavjud ishlab chiqarish tarmoqlarini keng ko'lamda raqamlashtirish asosida ta'minot zanjirlarini bosqichma-bosqich intellektuallashtirish tendensiyalariga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Logistikani optimallashtirish operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, barqaror va moslashuvchan biznes-tizimni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Logistik biznes-jarayonlarni optimallashtirish va ularning ta'minot zanjiridagi transformatsiyalashuvi kompaniyalar samaradorligi hamda foydaliligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Muallif tomonidan ta'minot tarmog'idagi logistik jarayonlar transformatsiyalashuvi darajasini aniqlovchi integral ko'rsatkich ishlab chiqilgan bo'lib, u mazkur jarayonlarning miqdoriy bahosini berish imkonini yaratadi.

Ishlab chiqilgan baholash metodikasi ta'minot tarmog'idagi logistik jarayonlarni optimallashtirish va ularning transformatsiyalashuvi samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi.

Morfologik matritsa usuli asosida "Alyorteks" MCHJ paxta-to'qimachilik klasterida logistik tuzilmani optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rib chiqildi. Optimal variant sifatida xom ashyo ta'minotini markazlashgan holda tashkil etish, klaster ichidagi tashishni o'z transporti orqali amalga oshirish, korxona ichidagi tashishda o'z sotish tizimidan foydalanish hamda tayyor mahsulotni dilerlik tarmog'i orqali sotish modeli tanlandi.

Xuddi shu usul asosida "Boyovut Techno Cluster" MCHJ paxta-to'qimachilik klasterida ham logistik tuzilmani optimallashtirish choralari ishlab chiqildi. Optimal variant sifatida xom ashyo ta'minotining markazlashgan tizimi, buyurtmalarni avtomatik guruhlash hamda ombor maydonlarini tashkil etishni qayta ko'rib chiqish modeli belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank Group. International Development, Poverty, & Sustainability. <https://www.worldbank.org/>
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi
3. Кодацкий В. П. Прибыль. — М.: Финансы и статистика, 2021. — С. 85.
4. Ахмадов А. Ш. Повышение эффективности управления производственной стратегией в промышленных предприятиях // Экономика и предпринимательство. — 2019. — № 10 (111). — С. 115–120.
5. Хромых Н. А. Экономический анализ оборотных активов предприятия. — М.: Русайнс, 2018. — С. 102.
6. Муминова Н. М. Сегментарный анализ рыночного потенциала текстильной промышленности Узбекистана // Молодой ученый. — 2015. — № 12 (92).
7. Зуева О. Н. Реверсивная логистика в управлении запасами // Известия Иркутской государственной экономической академии. — 2009. — № 1 (63). — С. 107.
8. Madрахimova G. R. Improving the Use of Investment in Improving the Efficiency of Light Industry Enterprises in Uzbekistan // International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS). — 2019. — Vol. 6, Issue 2 (April–June). — ISSN: 2348-6503. — P. 32–35. <http://ijrmbs.com/vol6issue2/madрахimova.pdf>
9. Waller M. A., Fawcett S. E. Data Science, Predictive Analytics, and Big Data: A Revolution That Will Transform Supply Chain Design and Management // Journal of Business Logistics. — 2023. — Vol. 34, No. 2. — P. 77.
10. Schmitt A. J., Singh M. Quantifying supply chain disruption risk using Monte Carlo and discrete-events simulation // In: Rossetti M. D., Hill R. R., Johansson B. et al. (eds). Proceedings of the 2019 Winter Simulation Conference. — 2019. — P. 1237.
11. Madрахimova G. R. Mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning o'rni, ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari // Biznes-Ekspert. — Toshkent, 2020. — 2-son. — B. 104–109.
12. Nasimov B. Strengthening and Enhancing the Export Potential of Industrial Enterprises for Sustainable Growth // Muhandislik va iqtisodiyot. — 2025. — 3(4).
13. Nasimov B. Improvement of Production Reserve Management Models in Cotton-Textile Clusters: ERP-Systems // Решение социальных проблем в управлении и экономике. — 2024. — 3(12). — P. 131–134.
14. Madрахimova G. R. Analysis of the Current Status of the Textile Industry in the Economy of Uzbekistan // Economics and Innovative Technologies. — 2020. — No. 1 (January–February). — P. 1–9. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2020/i>
15. Nasimov B. Scientific-Methodological Bases of Production Resource Management in Cotton-Textile Clusters // Академические исследования в современной науке. — 2024. — 3(52). — P. 66–71.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100